



AUTHENTIC MATERIALS AS A MEANS OF DEVELOPING STUDENTS' SPEAKING SKILLS

Tursunova Javkhar Bakir qizi

Researcher at the A. Avloniy National Institute of Pedagogical Skills

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15638499>

ARTICLE INFO

Received: 05th June 2025

Accepted: 10th June 2025

Online: 11st June 2025

KEYWORDS

Uzbek language,
authentic materials,
communicative
competence, speech
development.

ABSTRACT

Authentic materials are an effective tool for developing intercultural communicative competence and speech in foreign language learners. Such materials bridge the gap between the learning process and real life, bringing a lively atmosphere into the classroom. The most important aspect of authentic materials is that, because they are not modified by language instructors, learners have the opportunity to immerse themselves in the natural language environment and authentic cultural context. These materials allow learners to directly familiarize themselves with the customs and lifestyle of the speakers of the target language. Furthermore, the use of authentic materials enhances learners' motivation and helps them understand the cultural peculiarities of the language speakers. In this article, we discuss types of activities aimed at developing learners' speech through the use of authentic materials and provide practical examples.

AUTENTIK MATERIALLAR O'QUVCHILARNING NUTQINI O'STIRISH VOSITASI SIFATIDA

Tursunova Javhar Bakir qizi

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15638499>

ARTICLE INFO

Received: 05th June 2025

Accepted: 10th June 2025

Online: 11st June 2025

KEYWORDS

O'zbek tili, autentik
material kommunikativ
kompetensiya, nutq
o'stirish.

ABSTRACT

Autentik materiallar xorijiy tillarni o'rganuvchilar uchun madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani va nutqni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Bunday materiallar o'quv jarayoni va real hayot o'rtasidagi tafovutni yo'qotib, sinfga jonli muhitni olib kiradi. Autentik materiallarning eng muhim tomoni shundaki, til o'rgatuvchilar tomonidan qayta sayqallanmaganligi tufayli o'rganuvchilar tabiiy til muhitini va haqiqiy madaniy kontekstni o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladi. Bunday materiallar o'quvchiga o'rganayotgan tilidagi urf-odatlar va turmush tarzi bilan bevosita tanishish imkonini beradi. Shuningdek, autentik materiallardan foydalanish o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va shu til egalarining madaniy o'ziga xos jihatlarini anglashga yordam beradi. Maqolada autentik materiallardan



foydalanib, o'quvchilarning nutqini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat turlari haqida fikr yuritilgan va amaliy misollar keltirilgan.

АУТЕНТИЧНЫЕ МАТЕРИАЛЫ КА СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ УСТНОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ

Турсунова Джавхар Бакир кизи

Национальный институт педагогического мастерства имени А. Авлони

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15638499>

ARTICLE INFO

Received: 05th June 2025

Accepted: 10th June 2025

Online: 11st June 2025

KEYWORDS

Аутентичные материалы, межкультурная коммуникативная компетенция, развитие речи, узбекский язык.

ABSTRACT

Аутентичные материалы являются эффективным инструментом для развития межкультурной коммуникативной компетенции и речи у изучающих иностранные языки. Такие материалы устраняют разрыв между учебным процессом и реальной жизнью, создавая живую атмосферу в классе. Важнейшей особенностью аутентичных материалов является то, что они не подвергаются переработке преподавателями, что дает учащимся возможность освоить естественную языковую среду и настоящий культурный контекст. Эти материалы позволяют учащимся напрямую познакомиться с обычаями и образом жизни носителей изучаемого языка. Также использование аутентичных материалов повышает мотивацию учащихся и помогает им понять культурные особенности носителей языка. В этой статье рассматриваются виды деятельности, направленные на развитие речи учащихся с использованием аутентичных материалов, и приводятся практические примеры.

Bugungi kunda o'zga tilli maktablarning har bir sinfida boshqa millat va tilga mansub o'quvchilar tahsil olishmoqda. Tabiiyki, bu jarayon o'qituvchilar uchun o'zbek tili darslarida madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya va nutqini rivojlantirishni eng muhim vazifalardan biriga aylantiradi. Kommunikativ kompetensiya nutqni muloqotning maqsadi va holati bilan taqqoslash qobiliyatini, shuningdek, kommunikativ xatti-harakatlarning madaniy va ijtimoiy me'yorlarini hisobga olgan holda muloqotni to'g'ri yo'lga qo'yish qobiliyatini o'z ichiga oladi. M.R.Lvovning ta'kidlashicha, "kommunikativ kompetentlik – bu til va uning fonetik xususiyatlarini, leksik va grammatik birliklarini, stilistikasini, nutq madaniyatini, ushbu til vositalariga ega bo'lishni va nutq faoliyati turlarini bilishni bildiruvchi tushunchadir. [3]

Autentik materiallar tarkibiga kiruvchi audio materiallarga multfilmlar, filmlar, radiodasturlar, ob-havo xabarlar, internet materiallari, temir yo'l va aeroportlardagi e'lonlar,



televizion dasturlar, reklama roliklari, yangiliklar, telefon xabarlari, podkastlar, musiqa, audio yozilgan hikoyalar, va hokazo;

vizual materiallarga fotosuratlar, rasmlar, otkritkalar, o'yinchoqlar, chizmalar, matnsiz yo'l belgilar, tasvirlar, jurnallar va gazetadagi suratlar, pochta markalari, tangalar, matnsiz rasmlar, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa har qanday predmetlar;

bosma materiallarga esa kitoblar, internetdagi axborot, ko'chadagi e'lonlar, turli mahsulotlarning qadoqlari, qo'shiq matnlari, gazeta va jurnallar, reklamalar, teleko'rsatuvlar jadvali, kataloglar, restoran menyulari, mahsulot yorliqlari, xaritalar, xatlar, tabriknomalar, maktab e'lonlari, tashqi reklamalar, jamoat transporti jadvali va boshqalar kiradi.

O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda autentik materiallar juda ko'p bo'lishi mumkin, lekin o'qituvchi har bir sinfga mos keladigan autentik materiallarni tanlashda muhim mezonlarga: o'quv dasturidagi mavzularga, o'quvchilarning qiziqishlariga, foydalilik darajasiga, til bilish darajasiga va yoshiga mos bo'lishiga e'tibor qaratishi kerak

Masalan, oltinchi sinf "O'zbek tili" darsligidagi "Minoralar" mavzusi uchun darslikda berilgan topshiriqlar bilan birga quyidagi e'lonni autentik matn sifatida berish mumkin:

E'OLON

"Bo'ston Turizm Servis" MChJ sayyohlik agentligi sizni Buxoroga taklif qiladi!

Biz bilan siz qadimiy Kalon minorasini ko'rasiz!

Bu minora XII asrda qurilgan. Uning balandligi 47 metr. Siz bu yerda tarixni his qilasiz.

Sayohat narxi 100 000 so'm

Kun: Har yakshanba

Maktab o'quvchilari uchun chegirma mavjud!

Telefon: 998 90 969 69 69

Manzil: Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 32A uy

Telegram: @bo'stonsayohat.uz

Ushbu e'lon matni asosida o'quvchi quyidagi topshiriqlarni bajarishi mumkin:

1-topshiriq. E'lon matnini o'qing.

2-topshiriq. Savollarga javob bering:

- Minora nima?

- Kalon minorasi qayerda?

- Uning balandligi qancha?

- Minoralar nima uchun muhim?

3-topshiriq. Rol o'ynash mashqi (juftlikda bajariladi).

A: Sayohat agentligiga qo'ng'iroq qiling. Savollar bering:

- Salom! Kalon minorasiga sayohat bileti bormi?

- Nechchi so'm?

- Men o'quvchiman, chegirma bormi?

B: Agentlik xodimi bo'ling va mijoz tomonidan berilgan savollarga javob bering.

4-topshiriq. Siz ham boshqa tarixiy joyni (masalan, Xiva minorasi, Registon, Ark) tanlab, 4-5 ta gapdan iborat shunday e'lon yozing

5-topshiriq. O'zingiz uchun yangi bo'lgan so'zlarni lug'at daftaringizga yozib, yod oling.

Ushbu topshiriqlar o'quvchida bir qator nutqiy kompetensiyalarni o'stirishi jadval asosida yoritiladi:



Topshiriq	Nutqiy kompetensiya	Izoh
E'lonni o'qish	O'qish va tinglab tushunish	O'quvchi real hayotga oid e'lon matnini tushunadi; ahamiyatga molik ma'lumotlarni ajratib olishga harakat qiladi
Savollarga javob berish	O'qilgan matndan axborotni ajratish, yozma nutq	O'quvchi asosiy ma'lumotni matndan topadi va qisqa yozma javob beradi; tilni matnga bog'liq kontekstda qo'llaydi
Rol o'ynash	Og'zaki nutq va guruh bilan ishlash qobiliyati	O'quvchi jonli dialog orqali muloqot vaziyatini shakllantiradi; savol berish va javob berish orqali shu tilda vaziyatga mos tarzda so'zlashish nutqi shakllanadi
E'lon yozish	Yozma nutq, ijodiy fikrlash	O'quvchi matn strukturasi o'rganadi; o'z fikrini mantiqiy, tartib bilan yozma shakllantiradi.
So'zlar lug'ati	Leksik kompetensiya	O'quvchi yangi so'zlarni kontekstda tushunadi va o'zlashtiradi; so'z boyligi kengayadi.

Autentik materiallarni o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganayotgan o'quvchilarning til bilish darajasiga moslab berish juda muhim hisoblanadi, chunki autentik materiallar ona tilida so'zlashuvchilarning madaniyatiga asoslangan bo'lib, u til o'rganuvchilar uchun begona yoki noo'rin tuyulishi mumkin. Bunday holat yuz bermasligi uchun o'qituvchi o'zbek tilini o'qitishda autentik materialdan foydalanishdan oldin o'quvchilarning til va madaniyatni o'rganishdagi maqsadini aniqlab olishi darkor. Undan so'ng o'qituvchi autentik materiallardan foydalanish maqsadi va ularning til o'rganishi bilan bog'liqligi haqida suhbat o'tkazib, o'quvchilar bilan hamkorlikda materiallarni yig'ishi kerak.

Bugungi sharoitda autentik materiallarni topish oson va arzon, ayniqsa, internet har xil turdagi materiallar uchun boy manbadir.

Autentik materiallar quyidagi uchta mezonga javob berishi kerak:

1. Mazmun jihatidan o'tilayotgan mavzuga mosligi (qiziqarli va dolzarb bo'lishi).
2. Foydalanish imkoniyati (ya'ni ularni qanday qilib o'quv jarayonida qo'llash mumkinligi).
3. Tushunarli bo'lishi (til darajasi o'quvchilarga mos bo'lishi). [2]



Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda autentik materiallar juda ham foydali hisoblanadi. Ular o'quvchilarga tilni "real hayotga yaqin" vaziyatlarda qo'llashga yordam beradi va sinf sharoitida bo'lsalar-da, shu tilga xos madaniyat sohiblarining hayot tarzini o'zlarida sinab ko'radilar.[1] Shuningdek, matnlar, videolar va qo'shiqlar orqali uzatilayotgan autentik materiallar dolzarb bo'lishi kerak, chunki ular madaniy jihatdan tez ta'sir qiladigan va tezda eskirib qolishi mumkin. Bunday materiallar boshlang'ichdan tortib ilg'or darajagacha bo'lgan barcha til darajalari uchun qo'llanishi bilan ahamiyatlidir.

Autentik materiallar o'quvchilarga o'rganayotgan til orqali haqiqiy muloqotga yo'l ochadi, lekin ularni dars jarayonida qo'llashda ayrim muammolarga duch kelish ham mumkin. Eng avvalo, madaniy jihatdan mos, dolzarb va tushunarli materiallarni topish ancha murakkab va muayyan vaqt talab etsa, ikkinchi tomondan real hayotdagi tilni ko'pincha tushunish qiyin bo'ladi, chunki unda sheva so'zlari, frazeologik birliklar va murakkab til qoliplari ishlatiladi. Shuningdek, har bir til madaniyatida o'ziga xos stereotiplar mavjud bo'lib, ular o'quvchilar uchun tilni tushunishda muammolar keltirib chiqarishi aniq. Bunday holat yuz bermasligi uchun yuqorida ta'kidlangan autentik materiallarni tanlashdagi talablarga rioya e'tish va o'quvchilarning qiziqishlarini inobatga olish o'qituvchi ishini yengillashtiradi.

Masalan, 8-sinf o'zbek tili darsligida "Hosil bayrami" nomli mavzusida o'qituvchi Rossiyadagi "Осенины" va o'zbeklarning "Hosil bayrami" haqida ma'lumot berishi mumkin. Bunda turli xil ko'rgazmali materiallardan, jumladan, rasm va videolardan foydalanish muhim. Bu jarayonda o'quvchilar "Hosil bayrami" bilan bog'liq urf-odatlarini qiyoslash yo'li bilan ko'z oldilarida gavdalantirishga harakat qiladilar. So'ngra o'qituvchi "Hosil bayrami" jarayonlari aks etgan film yoki videoni o'quvchilarga havola qilib, undagi mevalar, kiyimlar va turli xil mehnat qurollari nomlari haqida va ularning nima maqsadda ishlatilishini so'rab oladi. Bunday ikki madaniyatga oid autentik materiallarni berish orqali o'qituvchi o'quvchida ikki madaniyatdagi o'ziga xos jihatlarni aniqlashni va bu orqali kuzatuvchanlik va fikr qilish qobiliyatini shakllantirishi uchun yordam beradi.

Xulosa shuki, autentik materiallar nutqiy kompetensiyaning barcha turini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilar bunday materiallardan muntazam ravishda foydalanishi dars mashg'ulotlarining qiziqarli, motivatsion va ta'limiy ruhda o'tishida muhim ahamiyatga ega. Albatta, autentik materiallar ehtiyotkorlik bilan tanlash va tayyorlashni taqozo etsa-da, o'qituvchining sarflagan vaqtiga arzigulik samarani ham bera oladi. Eng muhimi, tanlangan madaniy materiallar til o'rganish darslarining erkin va qulay muhitida o'quvchilar tomonidan ochiq muhokama qilinishi va ularning shaxsiy madaniy tajribalari bilan solishtirilishi kerak. Autentik materiallarning muntazam berib borilishi, o'quvchilarning jonli tilga tez ko'nikishiga va muloqot jarayonida turli xil til va madaniy to'siqlarni oson yengishiga yordam beradi.

References:

1. Byram, M. (1998). *Cultural Studies in Foreign Language Education*. Clevedon: Multilingual Matters, 1998. ISBN: 1853590177.
2. Canale, M. & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistic*, (1) 1-47.



3. Гильманова С.А. Педагогические условия развития иноязычной коммуникативной компетенции студентов неязыковых факультетов. Диссертация на соискание академической степени магистра. – Челябинск, 2019. 147 с.
<https://www.researchgate.net/publication/>